

KARIES VA PARODONT KASALLIKLARI PROFILAKTICASINI ASOSLASH

To'ychiyev Paxlavon Qobulovich
Xo'jaobod Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat
salomatligi texnikumi stomatologiya fani
kattta o'qituvchisi



Annotatsiya: Karies va parodont kasalliklari profilaktikasi asoslari bilan tanishtirish, ma'lumot berish, stomatologik kasalliklar profilaktikasi tadbirlarini ishlab chiqishni va rejalashtirishni, stomatologik kasalliklar kompleks profilaktikasi chora-tadbirlarini o'rgatish.

Kalit so'zlar: Profilaktika, Parodont, karioz kovak, gingivit, kariyes, dispanserizatsiya, remineralizatsiya, aplikatsiya

Parodont kasalliklari profilaktikasi 2 yo'nalishni o'z ichiga qamrab oladi, birinchi parodont kasalliklari rivojlanishini oldini olish. Bu yo'nalishga umumiy kasalliklar rivojlanishini oldini olish va ularni davolash bo'yicha ishlab chiqilgan kompleks chora tadbirlar, onalik va bolalikni ximoya qilish, kasb kasalliklarga qarshi kurash va boshqalar kiradi. Parodont kasalliklari profilaktikasida stomatolog-terapevt tomonidan olib boriladigan og'iz bo'shlig'i sanasiyasi muolajalarida parodont patologiyasi rivojiga olib keladigan travmatik faktorlarga qarshi chora tadbirlari muhimdir. Stomatolog karioz kovaklarning aproksimal va bo'yin oldi qismlarini ratsional plombalashga e'tibor berishi kerak, chunki bu parodont normal funkstiyasi uchun qulay sharoit yaratadi. Tishlar sanasiyasi, tish karashlarini olish bilan yakunlanishi shart. Prikus anomaliyalari aniqlaganda bemorlar ratsional ortodontik va ortopedik davolashlari muhimdir. Bu og'iz bo'shlig'ida qulay fiziologik holat yaratib, bola organizmida yuz-jag' sistemasining to'g'ri rivojlanishiga sharoit yaratadi. Mahalliy sabablarga ko'ra rivojlangan parodont kasalliklari profilaktikasining oddiy usuli bo'lib og'iz bo'shlig'I gigiyenasi hisoblanadi. Stomatolog-terapevt tish cho'tkasi, pastasi, va boshqa gigiyenik vositalar tanlashda tavsiya berishi kerak.

Profilaktikaning 2 yo'nalishiga parodont kasalliklari og'ir formalari va ularning asoratlari rivojlanishini oldini olish kiradi. Birinchi navbatda bu boshlang'ich formalarni tashxislash va davolash bo'lib, asosan profilaktik ko'riklar vaqtida aniqlanib, dispanser nazoratiga olish va boshqa ishlarni qamrab oladi. Bu

muolajalar vrach parodontolog tomonidan olib boriladi. Dispanser kartada bemorning ko'rikka kelish vaqti sanalari aniq belgilangan bo'lib, qayta ko'rikka kelishi quyidagicha:

- 1.gingivit bilan kasallanganlar 6 oyda 1 marta;
- 2.parodontit bilan kasallanganlar 6 oyda 1 marta;
- 3.parodontit tez-tez qaytalanishi bilan 3 oyda 1 marta;
- 4.parodontoz 12 oyda 1 marta.

Dispanser nazorati davomida parodontolog og'iz bo'shlig'i gigiyenasi qoidalarining bajarilishini hamda kasallik kechishini kuzatadi. Parodontolog dispanser nazorati ostida parodont kasalliklari bo'yicha 1 yil davomida olishini shart. 1 yil davomida kasallik remissiyasi kuzatilsa, keyingi kuzatuv hudud vrach stomatologi tomonidan olib boriladi.

Stomatologik profilaktik vositalari quyidagi guruhlariga bo'linadi: og'iz bo'shlig'i gigiyenasi vositalari, og'izni chayish uchun profilaktik vositalar, applikasiyalar uchun vositalar, tish to'qimalariga surtish uchun vositalar, profilaktik boylamlar uchun vositalar va xokazo.

Profilaktik stomatologik vositalar quyidagi talablarga javob berishi shart. Ularni tibbiy xodimlar yordamisiz ishlatib bilish mumkin bo'lib, keng ommaviy amaliyot uchun qulayligi muhim ahamiyatga ega.

Remineralizastiyalovchi profilaktika.

Tishlar kariesi profilaktikasida muhim ahamiyatga ega bo'lib tish to'qimalari rezistentligini oshirishga asoslangan. Emal remineralizastiyasi jarayonlari emalning o'tkazuvchanligini va uz tarkibini qayta tiklash xususiyatiga asoslangan.

Karies boshlang'ich stadiyasida emalning yemirilgan gidroksiapatitlar kristallarining Ca, P, F mineral ionlarini emalning turli qatlamlarida biriktirib olib ularning qayta shakllanishiga olib keladi. Intakt emalga mineral ionlar kamroq miqdorda va sekinroq utadi.

Remineralizastiyalovchi vositalar tarkibiga emal gidrosiftor apatitlarning tarkibiy qismi hisoblanishi Ca tuzlari, ftoridlar va fosfatlar asosiy o'rin tutadi.

Remineralizastiyalovchi profilaktika muolajasi tishlar gigiyenik pasta bilan tozalangach o'tkaziladi. Tishlar paxtali bolishchalar bilan chegaralanib, 10% Ca glyukonat eritmasi bilan oldin yuqori so'ngra pastki jag' tishlarining chaynov yuzalari, so'ngra lab va luj yuzalariga applikasiya qilinadi. Applikasiya 5-6 minut davomida etadi.

Ca glyukonat applikasiyasidan so'ng xudi shu yo'l bilan 2%-li NaF eritmasi bilan 1-2 minut davomida applikasiya muolajasi o'tkaziladi.

Profilaktika muolajalaridan so'ng bolaga 20-30 daqiqa davomida eyish va ichish tavsiya etilmaydi. Kurs kun oralab 3-ta muolajadan iborat. Qayta 5-6 oydan so'ng takrorlanadi.

Og'iz bo'shlig'i sanasiyasi-og'iz bo'shlig'i kasalliklarni davolash va asoratlarini bartaraf etish maqsadida tashkil qilingan aholiga stomatologik davolash profilaktik muolajalar sistemasidir.Og'iz bo'shlig'i sanasiyasi 2-lamchi profilaktika tadbiri hisoblanib,uni o'tkazishdan maqsad asoratlar rivojlanishini bartaraf etish uchun aniqlangan kasalliklarni davolashdan iborat.Shu nuqtai nazardan sanasiya og'iz bo'shlig'i organlarini sog'lomlashtirishdagi muhim tadbirlardan biri hisoblanadi.Sanasiya faol davolash tadbiridir.Jumladan stomatolog davolashga muhtoj bemorlarni o'zi aniqlab, ularni sog'lomlashtirishi shart. Og'iz bo'shlig'i sanasiyasini bolalar bog'chalari, maktablar va boshqa korxonalarda o'tkazish samarali natijalar beradi. Sanasiyaga muhtojlar №386 buyruqqa asosan 1 yilda 2 marta o'tkaziladigan profilaktik ko'riklarda aniqlanadi.

Korxonalar va tashkilotlarda o'tkaziladigan og'iz bo'shlig'i sanasiyasiga stomatologik dispanserizatsiyasining bir ko'rinishi sifatida qarash mumkin.Og'iz bo'shlig'i sanasiyasi aholini sog'lomlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lishiga qaramasdan,stomatologik kasalliklar paydo bo'lish darajasini pasaytirmaydi.

Suv va oziq moddalarni ftorlash.

Tishlar kariesini profilaktikasining eng qulay,effektiv usuli suvni ftorlash markazlashgan va markazlashmagan usullarda olib boriladi.Markazlashgan usulda suvni ftorlash qulay bo'lib,bunda ftor optimal konstantriyada maxsus ftoratorli moslamalar yordamida ichimlik suviga kushiladi.

Ayrim davlatlarda ichimlik suvini ftorlash uchun maxsus moslamalar maktab,bog'chalar suv kuvurlariga urnatilgan.(markazlashmagan usul).Ftorning tishlarga profilaktik ta'sir qilib,flyuoroz keltirib chiqarmaydigan optimal miqdori bo'lib,0,7-1,2 mt ftor ionlarining 1 l suvdoli miqdori hisoblanadi.

Ftoridlarni suv tarkibidagi shaklini iste'mol qilishning profilaktik ta'siri ayrim davlatlar tajribasi misolida yaqqol namoyon bo'lgan.Jumladan,AQSHda 15 yil o'tkazilgan suvni ftorlash tadbirlaridan so'ng 12-16 yoshdagi bolalarda KPU ko'rsatkichi 48-63 %ga kamaydi.Bunday misollar boshqa davlatlar tajribasida ham aniqlangan.Suvni ftorlashga sarflanadigan iqtisodiy mablag'lar AQSHda 1 kishiga yiliga 20 sentni tashkil qilsa,sobiq Sovet Ittifoqida yiliga 1-3 tiyinni tashkil qilgan bo'lib,bu profilaktikaning boshqa usullaridan ko'ra ancha arzonroqdir.Suvni ftorlashning yuqori tibbiy va iqtisodiy effektivligi bu usulning keng targ'ib bo'lishiga olib keldi.Butun dunyo bo'yicha 50% aholii iste'mol qiladigan suv ftorlanadi.

Suvni ftorlash va undagi ftor miqdori doimiy ravishda sanitar xizmat va kommunal tashkilotlar tomonidan nazorat qilinadi.Suvni ftorlash boshlangach 5,10 yillardan so'ng aholini qayta ko'riklardan o'tkazish tashkil qilinadi.

Tish kariesining profilaktikasi uchun ftoridlarni qo'llash yaxshi natija beradi.Ftoridlarning organizmga kirishining kamayishi tishlar kasallanishiga yo'l

ochib beradi. Shuning uchun karies tishlar ftor profilaktikasini va ftoridlarni organizmga tushishini nazorat qilib turish kerak. Organizmdagi ftoridlar miqdorini aniqlash uchun siydik qon plazmasi va so'lakni tekshirish kifoya. Ftor organizmdan asosan siydik, axlat va so'lak orqali ajralib chiqariladi 87% ftor siydik orqali ajralib chiqadi. Bolalarda ichimlik suvida ftoridlar 1 mg/l qabul qilganda siydik orqali 2535 m/kg ajralib chiqadi. Ftorning oshqozon ichak traktidan ajralishi, ovqatda so'rilmay qoladigan ftoridlar miqdoriga bog'liqdir. Ftoridlar qabul qilgandan 1% surilgan ftoridlar so'lakda paydo bo'ladi (ftor sakl) 0,1 mg/l ftor saqlovchi suv iste'mol qilinsa, shundan o'rtacha 0,007 mg/l ftor quloq oldi so'lak bezida hosil bo'ladi bir kunda 1 mg ftor qabul qilgan bolaning so'lakda 0,008 mg/l ftor bo'ladi so'lak doimiy ravishda tishlarni yuvib turadi. Shuning uchun ham so'lakda kam konsentrasiya ftor bo'lish ham karies tishlar ham profilaktikasi uchun ham muhim rol o'ynaydi. Ftorning siydik va so'lak orqali ekskrisiyalanishi o'rgangan holda bolalar ratsionida osh tuzida 250 mg/kg ftorid qo'yish kerak. Ftorlangan osh tuzi qabul qilgan 109 bolada ftoridlardan ajralishi o'rganildi. Siydikni har 6-8 soatda yig'ib borildi so'lakni esa ovqatlangandan keyin 1 soatdan keyin yig'ib borildi siydikdagi va so'lakdagi ftor konsentrastiyasini aniqlash ning Orion firmasida ishlab chiqarilgan kombinirlashgan ftor elektro(model 96-09) akalizator(model 920) yordamida aniqlanildi, yig'ilgan suyuqliklarni faqat plastic idishlarda saqlanadi. Bu tekshirishlar natijasi shuni ko'rsatdiki maktab yoshgacha bo'lgan bolalar siydigida ftor 13,80 m/kg f\ r ni tashkil etadi. Siydikda ftor konsentrasiya 0,5 mg/l, so'lakda esa 0,040 mg/l ni tashkil etadi. Ftor profilaktikasini 1 yil davomida qo'llash natijasida siydikda ftor 0,60 mg/l-gacha so'lakda esa 0,052 mg/l-gacha bo'lishi kuzatildi. Ftorning siydik orqali operastiyasi 27,0 mkg F\ r-ni tashkil etdi. 2 yil davomida ftorlangan osh tuzi qabul qilgan bolalarda siydikda ftor konsentrasiyasi 0,91 mg/l so'lakda esa

0,068 mg/l olish kuzatildi. Siydik orqali ftor ekskristiyasi 40,3 mg/k. Bizning tekshirishlarimiz shuni ko'rsatdiki karies profilaktikasi uchun ftorlangan osh tuzi qo'llash natijasida bolalar siydigida va so'lakda ftoridlar konsentrasiyasi oshdi hamda siydikda ftoridlar ekstraksiyasi oshdi (1 yildan keyin 1,96 martaga 2 yildan keyin 3,5 martaga oshdi).

Ftorning karies kasalligini pasayishidagi ahamiyati, ftorning xususiyatlari

1. Tish emalining kislotalarga chidamligini oshiradi.
2. Karies hosil bo'lgan hollarda remineralizastiya prosessini stimullaydi.
3. Tish karieslarida bor bo'lgan bakteriyalarni moddalar almashinuvi buzadi.

Tish emali elementlarni asosini apparatlarning kristallari tashkil etadi. Bu apparatlar kislotalarga chidamligi past bo'ladi. Kislotalar ishqor balansini o'zgarish natijasini emal karieslarida mikroblanishini yomonlashadi. Tish pastasidagi

silliqlovchi elementlar tish karieslari va ovqat qoldiqlarini tozalab tish yuzasini silliqlaydi ftor esa tish qattiq to'qimalarga kirib ftor apatit kristallarini hosil qiladi. Bu kristallar oddiy kristallardan ko'ra 1,5-2 baravar kislotalarga chidamli bo'ladi, lekin bu almashinuv qaytar proses bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham ftorning kristallari turishi uchun tez-tez doimiy ravishda tishning ftor bilan ta'minlab turish kerak.

Ftorlovchi va profilaktika qiluvchi vositalar:

FLOREDIN GEL № 5

Bu preparat karies profilaktikasi uchun xushbo'y meva ta'mli tiksotrop xususiyatli instrumentlarga yopishmaydi. Proksimal sohalarida kichik fissuralarda qo'llash qulay. Shpris bilan aplikastiya qilishda yaxshi. Tarkibida natriy ftor saqlaydi.

FLORODIN

Rangli indekatorli preparat karies profilaktikasi uchun qo'llaniladi. Emal remineralizastiyasi uchun karies bo'lgan moddalar natriy ftorid kalsiy saqlaydi. Zararlangan soha rangli indikator orqali aniqlanadi. Florodin tejam va karies profilaktikasi uchun yaxshi effektli preparatdir.

BIFLUORID 12

Tish bo'yinlari rezistenstiyasini davolash uchun va chuqur ftorlash uchun ishlatiladigan preparat tiniq ftorlakka ega. Tarkibida natriy kalsiy ftorid saqlaydi. Tiniqligi uchun kosmetik ftorlashga ishlatiladi.

PROFLUORID M.

Tishlarni chayish uchun ishlatiladigan preparat karies oldini oladi. Tarkibida natriy ftor saqlaydi. Tish karashlari va toshlarni yo'qotadi. Har kun qo'llash buyuriladi. 6 yoshdan katta bolalarda kattalarga qo'llash tavsiya etiladi.

PROFLUORID JELE.

Ftor saqlovchi jele aplikator yordamida qo'llaniladi yoki tish cho'tkasi bilan surtiladi. Karies profilaktikasi uchun qo'llaniladi. Tishlarga surtilganda tishlarni ftor bilan boyitadi va tish toshlarini yo'qotadi.

Bolalar o'rtasida sanitariya maorifi ishni olib borishga oqilona va atroflicha yondashuv eng yaxshi natijalar beradi. Bunday yondashuvga sanitariya maorifining ta'sir vositalarining uyg'unligi asos bo'ladi. N.G. Paxomov (1982), E.V. Borovskiy (1986) va boshqalarning fikriga ko'ra bunda 4 zveno: ishni olib boruvchi-vrach, pedagoglar, tarbiyachilar, ota-onalar va bolalarning o'zi ishtirok etishi zarur.

Sanitariya maorifi ishni birinchi navbatda bolalar muassasasining pedagoglar va tibbiy xodimlari bilan boshlash kerak.

Tibbiy biologik e'tiqod planiga quyidagi masalalarni kiritish mumkin :

1. Sut va og'iz tishlarining vaziyatlari, shakllanishi va yetilish xususiyatlari.
2. Tish yorish muddatlari.

3. Bolalarda tishning yemirilishi va uning asoratlari.
4. Tish cho'tkasi va tish pastasini qanday to'g'ri tanlash mumkin.
5. Tishni tozalashni qachon boshlash va qanday qilib tozalash kerak.
6. Bolalar ovqatlanishining tish sogligidagi ahamiyati.
7. Milk va og'iz bo'shlig'i shilliq qobig'ining kasalliklari.
8. Og'iz bo'shlig'i gigiyenasining tish kasalliklari oldini olishdagi ahamiyati.

Suhbatda tish kasalligining oldini olish ishlaridan ko'zda tutilgan maqsad va vazifalar tushunarli shaklda bayon etish kerak. Sanitariya maorifi ishlarining navbatdagi bosqichi bolalar bilan jonli suhbat o'tkazishdir. Suhbatni bolalarning yoshiga qarab o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Stomatologiya bo'yicha salomatlik darslari boshlang'ich maktabda ikki sanitariya maorifi va amaliy qismlarda bo'linadi. Mashg'ulotni maxsus jixozlangan gigiyena sinfida o'tkazish lozim. Gigiyena sinfida yuvinishi uchun 15-20-ta rakovina bo'lishi, ularning yuqorisiga ko'zgu o'rnatilishi, individual gigiyena vositalarini saqlaydigan jovonlar, qo'llanmalar uchun parta, stomatologik o'rindigi profilaktika uchun zarur dori-darmonlar kuyilishi zarur.

Sinf plakatlari, sxemalar, jag' chizmalari bilan jixozlanishi uchun ma'lum mazmo'nga va ta'lim maqsadlariga buysundirilgan bo'lishi lozim. Slaydlar va filmlar namoyish qilishi uchun apparatura bilan ekran bo'lishi kerak. Tish vrachi yoki maxsus ma'lumotli medistina hamshirasi 1 mashg'ulotni tishning tuzilish, inson hayotida vazifasi va ahamiyatini tushuntirishga bagishlanishi mumkin. Tishlarni turlarini, qanday yorib chiqishi va tushishini, ovqatlanishning roli haqida batafsil to'xtalish zarur. Ayniqsa uglerodli ozuqa qoldiqlarining tishning kasallanishidan ta'sirini yoddan chiqarmaslik kerak. Bolalarga bu bilimlarni etkazish jarayonida og'iz bo'shlig'i gigiyenasi nima uchun zarurligini, qachon va qanday maqsadlarda tish vrachiga murojaat qilish lozimligini ham tushuntirish kerak.

Ikkinchi darsda esa suhbat og'iz bo'shlig'ini parvarishlash vositalari va ashyolariga bagishlanishi mumkin. Bolalarga tish cho'tkasini qanday tuzilganligi, undan qanday foydalanish va uni saqlashni tushuntirish kerak. Tish pastasi yoki poroshokini ko'rsathish, ulardan foydalanish qoidalarini tushuntirish, tishni tozalash uslublarini modellarda ko'rsathish lozim. Mashg'ulotni yakunlashda mazkur masaladagi bilimlarni tekshirib ko'rish kerak.

Og'iz parvarishlarini amalda o'rgatishga bagishlangan uchinchi mashg'ulotda bolalarga tishning tozaligini qanday tekshirish bilan tanishtirish zarur. Mashg'ulot nihoyasida savol javoblar bilan bolalarning bilimini o'zgartirish darajasini aniqlash lozim.

Xulosa: Bolalar yoshida karies kasalligi kechishining o'ziga xos xususiyatlari

va davolash yo'llaribilan tanishtirish erta aniqlab tashxislash, bu xastaliklar profilaktikasi tadbirlarini ishlab chiqish va rejalashtirib ularni amalga oshirish bilan tanishtirish Bemorni tekshirish amaliy ko'nikmalarini ishlab chiqish;

Asosiy stomatologik kasalliklarni sindromlarini aniqlash ko'nikmalarini ishlab chiqish;

Kasalliklarni davolash, profilaktika, tekshirish rejasini tuzish bilimlarini shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. A. Kolesov. - «Stomatologiya detskogo vozrasta». - Moskva, 1991 g.
2. I.X.Xalilov, O.S.Yo'ldoshxonova, X.Sh.Raxmonov - Bolalar terapevtik stomatologiyasi va stomatologik kasalliklar profilaktikasi, -Yangiyyil, 2006 y.
3. T. F. Vinogradova. - «Stomatologiya detskogo vozrasta». - Moskva, 1987 g.
4. T. F. Vinogradova, O. P. Maksimova, E. M. Mel'nichenko. - «Zabolevaniya parodonta i slizistoy obolochki polosti rta u detey». - Moskva, 1983 g.
5. T. X. Safarov, I. X. Xalilov. - «Bolalar davolash stomatologiyasidan amaliy kulanma». - Toshkent, 1997 y.
6. E. M. Kuz'mina i soavt. - «Profilaktika stomatologicheskix zabolevaniy». - Moskva, 1997 g.
7. N. G. Paxomov. - «Pervichnaya profilaktika v stomatologii». - Moskva, 1982 g.
8. N. V. Kuryakina. - «Terapevticheskaya stomatologiya detskogo vozrasta». - N. Novgorod, 2001 g.
9. V.G.Suntsov, V.K.Leont'ev, V.A.Distel', V.D.Vagner. «Stomatologicheskaya profilaktika u detey.»- N.Novgorod, 2001
10. Nikolaev A.I., Prakticheskaya terapevticheskaya stomatologiya - 2004 g
11. Skorikova L.A., Propedevtika stomatologicheskix zabolevaniy - 2002 g
12. Lutsкая I.K., Rukovodstvo po stomatologii (prakticheskoe posobie) - 2002 g
13. Xalilov I.X., Yva A.S., va boshkalar «Bolalar terapevtik stomatologiyasi va stomatoluldoshxonooogik kasalliklar profilaktikasi» Toshkent-2012
14. Idashxanova O.S.«Bolalar terapevtik stomatologiyasi va stomatologik kasalliklar profilaktikasi » Tashkent-2007y.